
Vol. 2, No. 1 (2026)
ISSN-L: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN
ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



Vol. 2, No. 1 (2026)

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Maxmudova D.A. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov N.A.– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY TAFAKKUR RIVOJLANISHINING JINSIY XUSUSIYATLARI

Rajabov Murodil Jumaboyevich
Farg‘ona davlat universiteti psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yuldasheva Shoxista Tojialiyevna
2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi (6 yosh) bolalarda ijodiy tafakkur rivojlanishining jinsiy xususiyatlari psixologik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, qiz bolalar verbal-obrazli tafakkur, emotsional sezgirlik hamda divergent fikrlash komponentlari bo‘yicha yuqori natijalarni namoyon etganligi aniqlangan. O‘g‘il bolalarda esa fazoviy-obrazli tasavvur va vizual idrok elementlarining nisbatan faol rivojlanganligi kuzatilgan. Shuningdek, har ikki jins vakillarida abstrakt-simvolik tafakkurning hali to‘liq shakllanmaganligi qayd etilgan. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim jarayonida differensial hamda inklyuziv pedagogik yondashuvlarni qo‘llash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Kalit so‘zlar: ijodiy tafakkur, divergent fikrlash, maktabgacha yosh, verbal tafakkur, fazoviy tasavvur, obrazli fikrlash, kreativlik, jinsiy farqlar.

Аннотация. В данной статье психологически анализируются гендерные особенности развития творческого мышления у детей дошкольного возраста (6 лет). Результаты исследования показали, что девочки демонстрируют более высокие показатели по компонентам вербально-образного мышления, эмоциональной чувствительности и дивергентного мышления. У мальчиков относительно активнее развиты элементы пространственно-образного воображения и визуального восприятия. Также установлено, что у представителей обоих полов абстрактно-символическое мышление еще не сформировано в полной мере. Полученные результаты обосновывают необходимость применения дифференцированного и инклюзивного педагогического подхода в процессе дошкольного образования.

Ключевые слова: творческое мышление, дивергентное мышление, дошкольный возраст, вербальное мышление, пространственное воображение, образное мышление, креативность, гендерные различия.

Abstract. This article provides a psychological analysis of gender characteristics in the development of creative thinking among preschool children aged six. The research findings indicate that girls demonstrate higher levels of verbal-imagery thinking, emotional sensitivity, and divergent thinking components. Boys, in contrast, show relatively more active development in spatial-imagery imagination and visual perception elements. The study also reveals that abstract-symbolic thinking has not yet been fully formed in children of either gender. The findings substantiate the importance of applying differentiated and inclusive pedagogical approaches in preschool education.

Keywords: creative thinking, divergent thinking, preschool age, verbal thinking, spatial imagination, imagery thinking, creativity, gender differences.

KIRISH

Jahonda globallashuv jarayonlari, raqamli transformatsiya hamda tezkor innovatsion taraqqiyot sharoitida ta’lim tizimi oldiga nafaqat bilimga ega, balki mustaqil fikrlaydigan, muammoli vaziyatlarda kreativ yechimlar topa oladigan, intellektual va ijtimoiy jihatdan faol shaxsni shakllantirish vazifasi qo‘yilmoqda. Zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlarda ta’lim jarayonining markaziga o‘quvchi emas, balki uning kognitiv rivojlanish mexanizmlari, xususan, tafakkur jarayonlari va kreativ fikrlashni shakllantirish qo‘yilmoqda.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Maktabgacha ta’lim bosqichi shaxs rivojlanishida eng sezgir hamda yuqori plastiklikka ega davr sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Aynan shu davrda bolaning idrok etish qobiliyati, tasavvur olami, mantiqiy va obrazli tafakkur tizimlari intensiv ravishda shakllanadi. Shu bilan birga, kelgusida namoyon bo‘ladigan kreativ salohiyatning asosiy poydevori ham aynan ushbu bosqichda yaratiladi.

Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur jarayonlarini tizimli va maqsadli ravishda rivojlantirish orqali kreativlikni shakllantirish masalasi zamonaviy psixologiya hamda pedagogika fanlarining eng dolzarb, ustuvor va istiqbolli tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Dunyoda so‘nggi yillarda maktabgacha ta’limda kreativlikni rivojlantirish bo‘yicha turli ilmiy izlanishlar, xalqaro dasturlar va konferensiyalar amalga oshirilmoqda. Xususan, UNESCO hamda OECD tashabbuslari asosida o‘tkazilayotgan “Creativity in Education Summit” anjumanlarida kreativ tafakkur va uning ta’lim jarayonidagi o‘rni chuqur muhokama qilinmoqda [1, 25-b.].

Singapurda o‘tkazilayotgan “Good Start Early Childhood Conference” esa bolalarda ijodiy salohiyatni rivojlantirish, o‘yin texnologiyalari va innovatsion yondashuvlarning samaradorligi bilan bog‘liq tajribalarni keng yoymoqda [2, 14-b.]. Bundan tashqari, Yevropa, AQSH hamda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkur faoliyatini rivojlantirish orqali kreativlikni shakllantirish masalalari ilmiy tadqiqot markazlari va universitetlar darajasida keng tadqiq qilinmoqda [3, 67-b.]. Bu esa global miqyosda mazkur mavzuning dolzarbligi yuqori ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish hamda bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Jumladan, “Maktabgacha ta’lim va tarbiyani 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” hamda Prezident qaror va farmonlarida bolalarning tafakkur doirasini kengaytirish, mustaqil va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilgan [4, 3-b.].

Shuningdek, respublikamizda ham xalqaro miqyosdagi anjumanlar muntazam o‘tkazilib kelinmoqda. Masalan, Andijon davlat universitetida “Tarbiyachining innovatsion va kreativ faoliyatini raqamlashtirish” mavzusida o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda Germaniya, Koreya, Rossiya va Qozog‘iston kabi davlat mutaxassislari ishtirok etib, maktabgacha ta’limda kreativlikni rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or tajribalarni muhokama qilishdi [5, 42-b.]. Shuningdek, “Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda va Yangi O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim: kecha, bugun va ertaga” mavzusidagi xalqaro konferensiyalar ham sohaning ilmiy-nazariy asoslarini boyitishga xizmat qilmoqda [6, 58-b.].

Psixologiya va pedagogika sohalarida kreativlik fenomeni keng ko‘lamda tadqiq etilganiga qaramay, maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni shakllantirish jarayonida tafakkur faoliyatining o‘ziga xos roli hamda uning mexanizmlari yetarli darajada chuqur o‘rganilmagan. Mazkur jarayonni o‘rganish nafaqat nazariy, balki bevosita amaliy ahamiyatga ham ega. Zero, tafakkur faoliyatini to‘g‘ri yo‘naltirish orqali bolalarda muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmasi, yangicha yechimlar topish, noodatiy fikrlash va obrazli tasavvurlarni boyitish imkoniyati yuzaga keladi.

Shu bois, mazkur tadqiqot nafaqat ilmiy-nazariy bilimlarni boyitishga, balki maktabgacha ta’lim muassasalarida kreativlikni rivojlantirishning samarali usullarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Mazkur bobda maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda kreativlikni rivojlantirishda tafakkurning o‘rni empirik ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning ushbu bosqichi nazariy qarashlarni amaliy jihatdan tekshirishga qaratilgan bo‘lib, unda bolalarning divergent tafakkuri, obrazli fikrlashi va kreativ faoliyati maxsus ishlab chiqilgan diagnostik metodikalar orqali aniqlanadi. Xususan, IPS (savolnoma) asosida olingan natijalar bolalarning oddiy predmet va hodisalarga yangicha yondashish, muqobil yechimlar topish, fantaziya va tasavvurdan foydalanish darajasini baholash imkonini beradi.

Empirik tahlil jarayonida ikki tayyorlov guruhi bolalarining ko‘rsatkichlari qiyosiy o‘rganilib, ularning kreativ fikrlash darajasi, tafakkur moslashuvchanligi va g‘oya ishlab chiqish qobiliyatlari aniqlanadi. Shuningdek, natijalar individual farqlar, jins omili va guruh ichidagi variativlik nuqtayi nazaridan ham ko‘rib chiqiladi. Bu yondashuv bolalarda kreativlikning shakllanishi tasodifiy emas, balki tafakkur jarayonlarining rivojlanish darajasi bilan bevosita bog‘liqligini ochib berishga xizmat qiladi.

Ushbu nazariy qarashlarning amaliy tasdig‘ini ko‘rsatish maqsadida tadqiqotning empirik qismida maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning divergent tafakkuri va kreativ fikrlash darajasi maxsus diagnostik vosita - IPS (savolnoma) yordamida o‘rganildi. Xususan, 1-jadvalda keltirilgan natijalar bolalarning oddiy predmet va hodisalarga yangicha yondashish, muqobil g‘oyalar ishlab chiqish, tasavvur va fantaziyani erkin qo‘llash darajasini aniq aks ettiradi. Mazkur jadval orqali har bir bolaning individual kreativ ko‘rsatkichi, guruhlar kesimidagi umumiy tendensiyalar hamda tafakkur va kreativlik o‘rtasidagi bog‘liqlikning real empirik ko‘rinishi ochib beriladi.

Shunday qilib, 1-jadvalda jamlangan ma’lumotlar nafaqat bolalarning kreativ fikrlash darajasini baholash, balki tafakkurning kreativlikni shakllantirishdagi hal qiluvchi rolini amaliy jihatdan asoslash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bob davomida olingan natijalar asosida shuni ko‘rsatish maqsad qilingan: kreativlik mustaqil hodisa emas, balki tafakkurning yuqori darajadagi, moslashuvchan va transformatsion shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarning kreativ salohiyatini rivojlantirish uchun, avvalo, ularning tafakkur faoliyatini faollashtiruvchi pedagogik sharoitlar yaratish zarur. Mazkur bob aynan shu ilmiy g‘oyani empirik dalillar orqali asoslab beradi.

Ushbu nazariy qarashlarning amaliy tasdig‘ini ko‘rsatish maqsadida tadqiqotning empirik qismida maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning divergent tafakkuri va kreativ fikrlash darajasi maxsus diagnostik vosita - IPS (savolnoma) yordamida o‘rganildi. Xususan, 1-jadvalda keltirilgan natijalar bolalarning oddiy predmet va hodisalarga yangicha yondashish, muqobil g‘oyalar ishlab chiqish, tasavvur va fantaziyani erkin qo‘llash darajasini aniq aks ettiradi. Mazkur jadval orqali har bir bolaning individual kreativ ko‘rsatkichi, guruhlar kesimidagi umumiy tendensiyalar hamda tafakkur va kreativlik o‘rtasidagi bog‘liqlikning real empirik ko‘rinishi ochib beriladi.

Shunday qilib, 1-jadvalda jamlangan ma’lumotlar nafaqat bolalarning kreativ fikrlash darajasini baholash, balki tafakkurning kreativlikni shakllantirishdagi hal qiluvchi rolini amaliy jihatdan asoslash imkonini beradi.

1-jadval

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda divergent tafakkur va kreativ fikrlashni aniqlashga qaratilgan diagnostik IPS (savolnoma) natijalari (n=46)


№	Daraja	Ball oralig‘i	Tarbiyalanuvchilar soni	Foiz
1	Past	10-18 ball	20 nafar	43,5%
2	Norma	19-26 ball	13 nafar	28,3%
3	Yuqori	27-34 ball	9 nafar	19,6%
4	Juda yuqori	35-40 ball	4 nafar	8,6%
5	Jami	-	46 nafar	100%

1-jadvalda maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda divergent tafakkur va kreativ fikrlashni aniqlashga qaratilgan IPS (savolnoma) natijalari individual darajada batafsil aks ettirilgan. Ushbu jadval orqali har bir bolaning alohida savollar bo‘yicha javoblari, ularning kreativ fikrlash darajasi hamda jami ball ko‘rsatkichlari aniqlanib, tafakkur va kreativlikning individual namoyon bo‘lish xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi. Biroq individual natijalarni umumlashtirish va guruhlar kesimidagi umumiy tendensiyalarni aniqlash uchun ularni vizual shaklda ifodalash zarurati yuzaga keladi.

Shu maqsadda 1-rasmda 1-jadvalda keltirilgan natijalar asosida savollar kesimidagi umumiy ko‘rsatkichlar foizlarda qayta ishlanib, grafik ko‘rinishda tasvirlangan. Diagramma orqali 7-sonli va 4-sonli tayyorlov guruhlari bolalarining har bir savol bo‘yicha kreativ javob berish darajasi o‘zaro taqqoslanadi. Bu esa qaysi

turdagi topshiriqlar bolalar uchun osonroq, qaysilari esa murakkabroq ekanini aniqlash, shuningdek, tafakkurning qaysi komponentlari kuchli yoki sust rivojlanganini ko‘rish imkonini beradi.

Mazkur bog‘liqlik shuni ko‘rsatadiki, 1-jadval individual darajadagi chuqur empirik ma’lumotlarni taqdim etsa, 1-rasm esa aynan shu ma’lumotlarning umumlashtirilgan, tizimlashtirilgan va tahlil uchun qulay vizual ko‘rinishini beradi. Natijada, jadval va diagramma o‘zaro uyg‘un holda tafakkur va kreativlikning nafaqat individual, balki guruh darajasidagi rivojlanish xususiyatlarini kompleks yoritishga xizmat qiladi.



1-rasm “Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda divergent tafakkur va kreativ fikrlashni aniqlashga qaratilgan diagnostik IPS (savolnoma) natijalari”

Olingan natijalarga ko‘ra, qiz bolalar aksariyat ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘g‘il bolalarga nisbatan yuqoriroq natijalarni namoyon etgan (57,1%; 55,7%; 55,7% va h.k.). Bu holat maktabgacha yoshda qiz bolalarda verbal-obrazli tafakkur, emotsional sezgirlik hamda ijodiy tasavvurning nisbatan tezroq rivojlanishi bilan izohlanadi. Psixologiyada bu holat “erta ijodiy faollik” fenomeni sifatida qaraladi.

Xususan, “hayvonlar nima haqida gaplashardi?”, “tayoqchadan nima yasash mumkin?” kabi savollarda yuqori natijalar kuzatilishi bolalarning fantaziyasi, simvolik transformatsiya va metaforik fikrlash qobiliyati yaxshi shakllanganligini ko‘rsatadi. Bu esa divergent fikrlashning muhim komponentlaridan biri hisoblanadi.

O‘g‘il bolalar esa ayrim vazifalarda (masalan, “bulutlar nimaga o‘xshaydi?”) nisbatan yuqoriroq natija ko‘rsatgan (46,7%). Bu holat ularda fazoviy-obrazli tasavvur va vizual idrok elementlari nisbatan faolroq rivojlanganligini anglatadi. Shu bilan birga, “yangi o‘yin o‘ylab topish” kabi vazifalarda natijalarning deyarli tengligi ijodiy fikrlashning ayrim jihatlari jinsga bog‘liq emasligini ko‘rsatadi.

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, har ikki jinsda ham “yangi rang o‘ylab topish” va “ertak qahramonini yaratish” kabi yuqori darajadagi abstrakt ijodiy vazifalarda nisbatan pastroq ko‘rsatkichlar kuzatilgan. Bu esa mazkur yosh davrida abstrakt-simvolik tafakkur hali to‘liq shakllanmaganligini tasdiqlaydi.

Mazkur tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi (6 yosh) bolalarda ijodiy tafakkur, divergent fikrlash va tasavvur jarayonlarining jinslar kesimidagi o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Zamonaviy psixologiyada ijodiy fikrlash shaxsning kognitiv faoliyatining muhim komponenti sifatida qaralib, u yangi g‘oyalar yaratish, noan’anaviy yechimlar topish va obrazli tafakkur orqali namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, qiz bolalar ko‘pchilik ko‘rsatkichlar bo‘yicha yuqori natijalarni qayd etgan. Jumladan, “oddiy predmetlardan yangi funksiyalar topish”, “verbal fantaziyani ifodalash” va “obrazli transformatsiya”ni talab qiluvchi vazifalarda ustunlik kuzatilgan. Bu holat psixologik adabiyotlarda qayd etilganidek, qiz bolalarda nutqiy faollik, emotsional sezgirlik va ijtimoiy muloqotga moyillik ertaroq shakllanishi bilan bog‘liq. Natijada ular ijodiy vazifalarda ko‘proq assotsiatsiyalar keltirib chiqara oladi va g‘oyalar spektri kengroq bo‘ladi.

Shu bilan birga, o‘g‘il bolalar ayrim vazifalarda, xususan, fazoviy-obrazli tasavvurni talab qiluvchi topshiriqlarda nisbatan yuqoriroq natijalarni ko‘rsatgan. Masalan, “bulutlar nimani eslatadi?” kabi vizual obrazlarga asoslangan vazifalarda ularning ustunligi fazoviy idrok va vizual modellashtirish qobiliyati rivojlanganligi bilan izohlanadi. Bu holat neyropsixologik tadqiqotlarda ham tasdiqlangan bo‘lib, o‘g‘il bolalarda vizual-fazoviy ishlov berish tizimlari nisbatan faolroq rivojlanishi qayd etilgan.

XULOSA

Tahlil shuni ham ko‘rsatadiki, har ikki jins vakillarida yuqori darajadagi abstrakt ijodiy vazifalar (masalan, “yangi rang o‘ylab topish” yoki “yangi ertak qahramonini yaratish”)da nisbatan past ko‘rsatkichlar kuzatilgan. Bu holat Jean Piaget nazariyasiga muvofiq, maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkurning konkret-obrazli bosqichi ustunligi, abstrakt-logik operatsiyalarning esa hali to‘liq

shakllanmaganligi bilan tushuntiriladi. Demak, ushbu yoshda bolalar ko‘proq real tajribaga asoslangan va ko‘z oldiga keltirish mumkin bo‘lgan obrazlar bilan samarali ishlaydi.

Ijodiy tafakkurni baholash nuqtayi nazaridan mazkur natijalar divergent fikrlashning asosiy komponentlari - flyuyentlik (g‘oyalar soni), fleksibillik (turli yo‘nalishlarda fikrlay olish) va originallik (noodatiy yechimlar taklif qilish) darajasini bilvosita aks ettiradi. Qiz bolalarda flyuyentlik va fleksibillik yuqoriroq bo‘lsa, o‘g‘il bolalarda ayrim hollarda original vizual obrazlar yaratishga moyillik kuzatiladi.

Olingan natijalar maktabgacha ta’lim jarayonini tashkil etishda differensial yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Jumladan:

- qiz bolalar uchun ijodiy yozish, hikoya tuzish, rolli o‘yinlar orqali verbal ijodkorlikni yanada rivojlantirish;
- o‘g‘il bolalar uchun konstruktiv o‘yinlar, modellashtirish, rasm chizish va vizual topshiriqlarni ko‘proq qo‘llash;
- har ikki jins uchun ham divergent fikrlashni rivojlantiruvchi ochiq savollar, muammoli vaziyatlar va erkin ijodiy faoliyatni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalari maktabgacha yoshda ijodiy tafakkur rivojlanishi jinsga xos ayrim farqlarga ega ekanligini tasdiqlaydi. Biroq bu farqlar mutlaq emas, balki tarbiya, ta’lim muhiti va individual xususiyatlar ta’sirida o‘zgaruvchan hisoblanadi. Shu boisdan, bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda universal va inklyuziv pedagogik yondashuvni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Выготский Л. С. Мышление и речь. — М.: Педагогика, 1982. — 288 с.
2. Эльконин Д. Б. Психология игры. — М.: Владос, 1999. — 360 с.
3. Гальперин П. Я. Введение в психологию. — М.: Издательство Московского университета, 1976. — 150 с.
4. Torrens E.P. Guiding Creative Talent. - New Jersey: Prentice Hall, 1962.
5. D’yachenko O.M. Psixologicheskiye osobennosti razvitiya doshkolnikov. - Moskva, 1996.
6. Musurmonova O. Maktabgacha ta’lim psixologiyasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
7. Abdurahmonova G. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur rivoji. - Toshkent, 2020.
8. Jo‘rayev R.X. Bolalar tafakkurining psixologik asoslari. - Toshkent, 2019.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyani 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” to‘g‘risidagi qarori.
10. UNESCO. Creativity in Education Summit Reports. - Paris, 2022.

MUNDARIJA

UYUSHMAGAN YOSHLAR VA ULARNING MUAMMOLARI Atabayeva Nargis Batirovna	**4**
TURLI YOSH DAVRLARIDAGI SHAXSLARDA O‘ZINI O‘ZI FAOLLASHTIRISH VA EMOTSIONAL SOHA O‘RTASIDAGI ALOQADORLIKLAR Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li	**25**
O‘ZBEK VA QIRG‘IZ QIZLARINI ETNIK STEREOTIPLARI VA IJTIMOIY USTANOVKALARINI ILMIY TADQIQ ETISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI Djuxonova Noxida Xayotjonovna	**33**
ZAMONAVIY SHIFOKORLAR PROFESSIONAL KARERASIDA PSIXOLOGIK OMILLARNING TA’SIRI Arziqulov O‘tkirbek Maxammatovich	**43**
KIMYOVIY ADDIKTATSIYALARDA OILAVIY MUHITNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI Mirashirova Nargiza Anvarovna., Raxmatova Zulxumor Alimovna	**50**
TYUTORLARNING BOSHQARUV USLUBLARI VA ULARNING TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI Alijonov Nurbek Ulug‘bek o‘g‘li	**56**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY TAFAKKUR RIVOJLANISHINING JINSIY XUSUSIYATLARI Rajabov Murodil Jumaboyevich., Yuldasheva Shoxista Tojialiyevna	**70**
TA’LIM MUHITIDA O‘QUVCHI SHAXSI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK USULLARI Soliyev Farxodjon Sodiqovich., Akbarova Nigora Axmadjonovna	**78**

MUNDARIJA

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O‘QUVCHILARIDA KASBIY O‘ZINI-O‘ZI BELGILASH: MOTIVATSION VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI Mo‘minov Davronjon Marifjon o‘g‘li	**92**
O‘ZBEK VA RUS QIZLARINI OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARINI AMALIY O‘RGANILISHI Usmonova Nargiza Raximjonovna	**102**
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ Мирзажонова Элеонора Топволдиевна	**110**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RUHIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI Z.O.Abdullayeva	**117**
HARBIY FAOLIYATDA ZAMONAVIY STRESS OMILLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Abdumalikova Iroda Abdulaziz qizi	**125**
PSIXOLOGIK BARQARORLIK VA MOLIYAVIY STRESS MUAMMOSINING ILMIY TADQIQ ETILGANLIK DARAJASI Sotvoldiyeva Nargiza Abdukarimjon qizi	**136**
КОРРЕЛЯЦИЯ ИНФОРМАЦИОННОГО И ТЕМПЕРАМЕНТНОГО КРИТЕРИЕВ ВЕРТНОСТЕЙ В СФЕРЕ КОГНИТИВНОЙ СОЦИОНИКИ Туллекова Карина Сергеевна	**143**
TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARNING SHAKLLANISH OMILLARI VA BARTARAF ETISH YO‘LLARI Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	**157**

MUNDARIJA

MURAKKAB BICHIMDAGI USTKI KIYIMLARNI MODELLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Sattorova Ra’no Abdunazar qizi., Sindarova Shoxista Maxammatovna	**166**
O‘ZBEKISTONDA BAG‘RIKENGLIK SIYOSATINI YURITISHDA ETNOTURIZMNING O‘RNI Shavkat Bobojonov	**173**
BUXORONING OILAVIY VA JAMOAVYI MAROSIMLARI (MAHALLIY ERONIYLAR MISOLIDA) Iroda Kalonova	**177**
ELLIPTIK GAPLARNING STILISTIK MAQOMI Rasulov Zubaydullo Izomovich	**183**
PRAGMATIC AND COGNITIVE ANALYSIS OF CONCEPT “PEACE” IN POLITICAL SPEECH Rakhmatova Mehriniso Musinovna., Rakhmonova Jasmina Anvarovna	**188**
TIL EVOLYUTSIYASIDA O‘ZGARUVCHANLIK VA TEJAMKORLIK PRINSIPLARI Qobilova Nargiza Sulaymonovna	**194**
ZAMONAVIY INTERNET-MULOQOTDA LINGVOMADANIY BIRLIKLAR FENOMENI Jalolova Nigina Zavqiddin qizi	**203**

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/